



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

AKSIOLINGVISTIK TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

METHODOLOGY OF AXIOLINGUISTIC RESEARCH

Komilova Gavharoy Ro'zimovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

E-mail: r_gavharoy@mail.ru

ORCID: 0000-0003-4846-2100

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./GCZU7195](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./GCZU7195)

Annotatsiya. Zamonaviy tilshunoslikda aksiolingvistika antropotsentrik paradigma doirasida kognitiv va diskursiv yo'nalishlarning kesishgan nuqtasida shakllangan mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida qaraladi. Mazkur tadqiqot yo'nalishi til birliklarida verbalizatsiyalangan qadriyatlar tizimini aniqlash, ularning ontologik, gnoseologik hamda pragmatik asoslarini yoritishga qaratilgan. Shu bois aksiolingvistik tadqiqotlar metodologiyasi monometodik yondashuv bilan cheklanmay, polimetodik va integrativ xarakter kasb etadi.

Kalit so'zlar: aksiolingvistik, antropotsentrik paradigma, qadriyat, assotsiativ-aksiologik tahlil, aksiologik komponent tahlil, kognitiv-aksiologik modellashtirish.

Annotation. In modern linguistics, axiolinguistics is regarded as an independent scientific field that emerged at the intersection of cognitive and discursive approaches within the anthropocentric paradigm. This line of research is aimed at identifying the system of values verbalized in linguistic units and elucidating their ontological, epistemological, and pragmatic foundations. Therefore, the methodology of axiolinguistic research is not limited to a monomethodological approach but is characterized by its polymethodological and integrative nature.

Keywords: axiolinguistics, anthropocentric paradigm, value, associative-axiological analysis, axiological component analysis, cognitive-axiological modelling.

Aksiolingvistik tadqiqotlarda yetakchi metodlardan biri assotsiativ-aksiologik tahlil hisoblanadi. Ushbu metod erkin assotsiativ tajribalar, assotsiativ lug'atlar va matn asosidagi assotsiatsiyalarni kompleks tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, konseptlarning aksiologik strukturasi (aksiologik yadro, yaqin va uzoq periferiya)ni aniqlash imkonini beradi. Assotsiativ birliklar aksiologik markerlar (ijobiy, salbiy, neytral, ambivalent) asosida tasniflanadi va ularning dominantlik darajasi belgilanadi.

Aksiolingvistik metodlar integral xususiyat kasb etadi. Jumladan, assotsiativ-aksiologik tahlil **lingvokulturologiyada** tilning madaniy kodlari,

stereotiplari va mentalitetini tahlil qilish uchun qo'llansa, aksiologik ishlarda axborot mazmunidagi qadriyat yo'nalishlarini tahlil qilishda foydalaniladi.

Shuningdek, assotsiativ-aksiologik tahlil – bu matn yoki nutqda obrazlar va g'oyalar o'rtasida vujudga keladigan assotsiatsiyalar hamda ularning qadriyatlar (aksiologiya) bilan munosabatini o'rganadigan tadqiqot metodidir. Ushbu yondashuv inson tomonidan “yaxshi” yoki “yomon”, “muhim” yoki “muhim emas” singari baholashni aniqlash orqali muallif yoki jamiyatning baholash tizimi va motivlarini anglashga xizmat qiladi. Baholashning subyektiv tomonlarini asoslaydi. **Assotsiativ-aksiologik metod** qadriyat yo'nalishlarini assotsiativ tafakkur bilan birlashtirib, madaniy qadriyatlarning ongda qanday aks etishi va tilda qanday ifodalanishini tahlil qiladi.

Matnda yoki bayonotda aks etgan qadriyatlar (oila, muvaffaqiyat, erkinlik, an'ana va boshqalar)ni assotsiatsiyalar orqali belgilaydi. Ya'ni muayyan so'z va obrazlarni ushbu qadriyatlar bilan o'zaro munosabatini ko'rsatib beradi [Usmonov, 2024]. Ma'lum bir narsa-hodisaning qadriyatga aylanish **mexanizmlarni tadqiq qiladi**, ularning nima sababdan qadriyat yoki qadrsiz deb qabul qilinishini madaniy tajriba va individual assotsiatsiyalar prizmasida izohlaydi.

Assotsiativ-aksiologik metod media kontentining ijtimoiy qadriyat yo'nalishlarini aniqlashda ham ahamiyatli. Xususan, media-siyosiy matnlarning aksiologik tuzilmasini lingvistik nuqtayi nazaridan o'rganadi – qadriyatlar, antiqadriyatlar va ularning matndagi lingvistik ko'rinishini tadqiq qiladi [Марьянчик, 2005].

Ayni paytda aksiologik tadqiqotlar diskurs tahlil bilan bog'liqlikda olib borilmoqda. Mediatekstning obrazlar tizimi va qadriyatlarning o'zaro munosabatini o'rganish hamda mediada qadriyatlar mexanizmlarini ochib beruvchi ishlar shular jumlasidan [Ерофеева, 2011]. Shu bilan birga, assotsiativ-aksiologik yondashuv orqali media aksiologiyasi, uning metodologik strategiyalari, media orqali qadriyatlarni strukturalash va o'rganish usullari belgilab olindi. Natijada media bilan bog'liq aksiologik tadqiqotlarda qadriyat yo'nalishlarini tahlil qilish bo'yicha umumiy nazariy baza shakllandi [Виктор, 2021].

Assotsiativ-aksiologik metod bir qator ishlarda media matnlaridagi qadriyat yo'nalishlarini empirik korpus va diskurs tahlili bilan bog'lash uchun amaliy namuna vazifasini o'tadi [Жаркынбекова, Селиверстова, 2025].

Shuningdek, ushbu metoddan media matnlarda qadriyat modelini aniqlashda ham foydalanilmoqda. Tadqiqotda media matnlarida ifodalangan qadriyat konseptlari semantik chastotaga asoslangan tahlil yordamida o'rganiladi, ya'ni leksemalar tahlili orqali qadriyatlarning mazmuniy yo'nalishlari aniqlanadi [Андреева, 2024].

Aksiologik ma'noning ichki tuzilishini aniqlashda esa aksiologik komponent tahlil metodidan foydalaniladi. Ushbu metod leksik birliklar semantikasidagi

baholovchi, emotsional-ekspressiv, normativ va teleologik semalarni ajratishga xizmat qiladi. Natijada til birliklarining aksiologik potentsiali tavsiflanadi. **Aksiologik komponent tahlili** muayyan hodisani (matn, madaniyat) uning tarkibiy qismlariga (komponentlariga) ajratish orqali uning qadriyatlar tuzilmasini aniqlaydi. Ya'ni unda qanday qadriyatlar (axloqiy, estetik, ijtimoiy, shaxsiy) mavjudligi, ularning qanday tartiblanganligi va obyektning mazmuni hamda funksional ahamiyatiga qanday ta'sir ko'rsatishi o'rganiladi. Aksiologik komponent tahlil metod obyektini integral va differensial belgilarga ajratgan holda muallif, madaniyat yoki shaxs uchun nimaning “muhim” ligini bilish imkonini beradi.

Aksiolingvistik tadqiqotlarda kognitiv-aksiologik modellashtirish yondashuv asosida konseptlar mental tuzilma sifatida talqin qilinadi. Mazkur yondashuv konseptning baholovchi skriptlari, freymlari va stsenariylarini aniqlashga imkon beradi. Kognitiv-aksiologik model orqali konseptning ijtimoiy ongda aksiologik profili rekonstruksiya qilinadi. Xususan, M.Pimenova qadriyatli mazmuni rus mentalitetining kognitiv shakllari sifatida, qadimgi rus matnlari misolida o'rgangan bo'lsa, V.I. Terkulov shaxsning etnik identifikatsiyasini til, sotsiomadaniy va siyosiy parametrlar asosida qurilgan yaxlit kognitiv profil (konstrukt) sifatida modellashtirishni taklif etadi [bu haqda qarang: Милованова, 2024; 145].

Aksiolingvistik tadqiqotlarda diskursiv-aksiologik tahlil metodining qo'llanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu metod siyosiy, medial, badiiy va ijtimoiy diskursda qadriyatlarning funktsiya (ideologik, pragmatik va manipulyativ) larini aniqlashga qaratilgan. Diskursiv tahlil aksiologik ma'noning kommunikativ strategiyalar bilan bog'liqligini isbotlaydi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, aksiolingvistik tadqiqotlar metodologiyasi zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasi talablariga mos ravishda polimetodik va integrativ yondashuvni talab etadi. Til birliklarida aks etgan qadriyatlarning tabiati ko'p qirrali bo'lgani bois ularni tadqiq etishda assotsiativ-aksiologik tahlil, aksiologik komponent tahlili, kognitiv-aksiologik modellashtirish, diskursiv tahlil, konseptual tahlil hamda lingvomadaniy yondashuv kabi metodlar o'zaro uyg'un holda qo'llaniladi. Ushbu metodlar tizimi qadriyatlarning ontologik, gnoseologik va pragmatik xususiyatlarini aniqlashga, ularning til tizimi va nutq jarayonida namoyon bo'lish mexanizmlarini kompleks tadqiq etishga imkon beradi. Aksiolingvistik tadqiqot metodlari, nafaqat tilning mazmuniy va baholovchi kategoriyalarini yoritadi, balki madaniy-ma'naviy tajribaning til orqali konseptual tashkil topish jarayonini ilmiy asosda qayta tiklashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Андреева А. Репрезентация ценностей российской культуры в медиатекстах тверского региона. Тверь – 2024. С.174



2. Виктор А. Аксиология массмедиа: проблемные поля и стратегии изучения //Аксиология массмедиа: проблемные поля и стратегии изучения Гуманитарный вектор. 2021. Т. 16, № 4. С. 117–125. <https://doi.org/10.21209/1996-7853-2021-16-4-117-125>
3. Ерофеева И.В. *Образная система современного медиатекста: аксиология вопроса*// ЧЕЛОВЕК, КУЛЬТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ Научно-образовательный и методический рецензируемый журнал. Сыктывкар 2011. С. 44–52.
4. Жаркынбекова Ш.К., Селиверстова Ж.Б. ЛИНГВОАКСИОЛОГИЯ ЦЕННОСТЕЙ В МЕДИАДИСКУРСЕ КАЗАХСТАНА: АНАЛИЗ КЛЮЧЕВЫХ СЛОВ КАК РЕПРЕЗЕНТАНТОВ ОБЩЕСТВЕННЫХ КОНЦЕПТОВ// Terra Linguistica. 2025, Том 16, № 4. С. 41–58. <https://doi.org/10.18721/JHSS.16403>
5. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=gHnKX3EAAAAAJ&citation_for_view=gHnKX3EAAAAAJ:3fE2CSJrl8C
6. Марьянчик В.А. Аксиологическая функция неологизмов медиаполитического дискурса (на материале газетных публикаций начала XXI века). Автореф. дис. ... док. филол. наук. – Архангельск, 2005. – 20 с.
7. Милованова М. АКСИОЛОГИЯ И КОГНИТИВНАЯ ЛИНГВИСТИКА// Вопросы психолингвистики 4 (62) 2024. С. 144–147. doi: 10.30982/2077-5911-2024-62-4-144-1477. Usmonov F. O'zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti Filologiya fanlari doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya, Andijon, 2024. – 59 b.